

Dars jarayonida o'qituvchi faoliyati

Nilufar Sharopova

QXTXQTMOI

Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrası o'qituvchisi

Jamiyatning kundan kun o'zgarib, rivojlanib borishi turli sohalarda faoliyat ko'rsatayotganlar singari har bir o'qituvchidan tashabbuskorlikni, faollikni, mustaqil fikrlash, axborot texnologiyalarni qo'llay olish kabi masalalarni hal etishni talab qiladi. Ta'lim jarayonida bu masalalarning yechimi – o'qitish, ya'ni dars jarayonida amalga oshiriladi.

Dars – jamoa mehnati jarayoni hisoblanadi. Darsda ijodiy muhitni yaratish, vaqtni to'g'ri rejalashtirish, mashg'ulotlarni o'z vaqtida o'tkazish bolalarda jamoa bo'lib ishlay olish ko'nikmalarini shakllantirish, o'zaro yordam va bolalar o'rtasida hamkorlik o'tnatish yo'llari bilan mashg'ulotlar jamoa mehnati jarayoniga aylantiriladi.¹

Dars, yuqorida aytib o'tilganidek, o'qitishni tashkil etishning o'zgarmas shakli emas. O'quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yo'llarini izlaydi. Bu sohada turli xil ko'rik-tanlovlar, respublika miqyosida o'tkazilayotgan pedagogik o'qishlarda o'rtaga qo'yilayotgan ilg'or o'qituvchilarning fikr va mulohazalari diqqatga sazovordir.

Maktablarimizda darsning boshlanish davrini darsning tashkiliy daqiqalari deb yuritiladi. To'g'ri, darsning shunday bir kichik tashkiliy qismi ham bo'lmog'i lozim. Biroq, bu dars shaklining biror bosqichi yoki to'zilishiga kirmasligi kerak. Tashkiliy daqiqada sinfning tayyorgarligini sinchiklab ko'zatish muhimdir.

Tajribali o'qituvchilar fursatni qo'ldan bermay, o'quvchilar diqqatini chalg'itmay, darhol ish boshlab yuboradilar.

Ayni paytda o'qituvchi oldida ikki vazifa butun sinf o'quvchilari diqqatini o'ziga jalb qilish va butun sinf o'quvchilarini tezlik bilan mashg'ulotga faol kirishishlarini ta'minlash vazifalari turadi.

¹ Asqarova O' va boshqalar. Pedagogika. T.: Talqin. 2008. 88-bet.

Dars mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadni ravshan va aniq qilib o'qitish bilan boshlanadi. Dars yangi materialni bayon qilishga qaratilgan bo'lsa, dars mavzusi aytiladi. Darsda rejada mo'ljallangan materialni o'tib bo'lingach, u albatta yakunlanishi, xulosalar chiqarilishi kerak.

Darsni tashkil etish va olib borishdagi bosh maqsad - ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashdir. Buning uchun:

a) o'tilayotgan mavzudan ko'zlangan maqsadni uqtirish bilan bir vaqtda, o'quvchilar materialni faol idrok qilishga safarbar etilgan bo'lishlari kerak. Ya'ni o'qituvchi bayon qilayotgan materiallar o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, ongli o'zlashtirishga intilishlarini ta'minlamog'i lozim;

b) ajratilgan vaqt ichida o'qituvchi materiallarni tizimli va izchil bayon qilish bilan bir vaqtda, o'quvchilarni xam, albatta, mavzuga oid mustaqil ish olib borishlarini ta'minlash juda muhimdir.

Darsni har jihatdan samarali tashkil etish, albatta, o'qituvchi faoliyatiga katta bog'liqdir. O'qituvchi o'z faoliyatini tashkil etishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratishi lozim:

- o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun puxta reja tuzib olishi kerak;
- dars turning qanday bo'lishidan qat'iy nazar, o'quvchilarga yangi bilimlar berishi shart;
- har bir o'quvchini o'z faniga qiziqтира olishi muhim;
- o'tilayotgan har bir fanni o'quvchi hayotida muhim rol o'ynashini tushuntirib berish;
- dars jarayonida berilgan topshiriqlarni to'liq bajarilishiga erishish, o'quvchilar diqqatini chalg'ituvchi holatlarga yo'l qo'ymaslik;
- nutqiga alohida e'tibor qaratish, chunki o'quvchi o'qituvchining nutqiga taqlid qiladi;
- o'z hatti-harakatini kuzatib o'rganib, o'rganib borishi va tanqid qila olishi;
- o'quvchilarning darsga qiziqishlarini qo'llab -quvvatlash;

- o'quvchilar oldiga talablarni bir xilda qo'ya olish va bajarilishini xolisona nazorat qila olishi;
- darsda o'z tadbirkorligini namoyish eta olishi, muammoli vaziyatlardan o'rinli chiqib keta olishi;
- mavzuni ochib berishga xizmat qiladigan metodlarni to'g'ri tanlay olishi;
- o'quvchilar bilan hamkorlikda ish olib borishi lozim.

Mohir pedagoglar darsni shunday tashkil etadilarki, har bir o'quvchi darsga o'z borlig'i bilan kirib ketadi. Har bir o'quvch mavzuni tushunishda, darsni yana ham samarali bo'lishida o'z faoliyati bilan ishtirok etadi. Har bir o'qituvchi o'z faoliyatida ana shunday darslarni tashkil etishni xoxlaydi. Buning uchun o'qituvchi yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lishi va o'z ustida tinimsiz ishlashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asqarova O' va boshqalar. Pedagogika. T.: Talqin. 2008. 88-bet.
2. Pedagogika. /prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida.- T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010,- 400 b.
3. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O'qituvchi. 2010 y. 254-263 b.
4. Pedagogik mahorat. O'quv –metodik qo'llanma. TDPU.T., 2005